

young people, perhaps with new pedagogical models that avoid the low spoken proficiency outcomes of many current foreign language programmes.

#### **USED LITERATURE:**

1. [https://www.researchgate.net/publication/371788654\\_Learning\\_and\\_Teaching\\_of\\_English\\_in\\_the\\_Multilingual\\_Classroom\\_English\\_Teachers'\\_Perspectives\\_Practices\\_and\\_Purposes\\_Eds](https://www.researchgate.net/publication/371788654_Learning_and_Teaching_of_English_in_the_Multilingual_Classroom_English_Teachers'_Perspectives_Practices_and_Purposes_Eds)
2. <https://medium.com/change-your-mind/mastering-multilingualism-how-i-learned-three-new-languages-with-a-busy-lifestyle>
3. <https://chat.openai.com/>

### **KONSEPTNING LINGVOKULTUROLOGIK KATEGORIYA SIFATIDA IFODALANISHI**

**Karimova Munisa Yaxyoyevna**

Samarqand davlat chet tillar instituti “Ingliz filologiyasi” kafedrasida katta o‘qituvchisi

**Imamov Navruz Pattaqulovich**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Tillarni o‘qitish” kafedrasida katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqola konseptning lingvokulturologik jarayon sifatida qiyoslab o‘rganish bilan birga kognitiv jihatini ham tahlil qilish orqali ifodalashga qaratilgan. Tillar orasidagi qiyoslashda o‘ziga xos o‘rin tutadigan konseptning taqqoslanishi konseptlarning verballashuvi, lingvo madaniyatlarining etnologik xususiyatlarini yoritib berishi qiyoslab o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** Konsept, madaniy muhit, aksiologik, verballashuv, grammatik nutq, lingvokulturologiya, lingvamadaniy.

**Аннотация.** Целью данной статьи является выражение когнитивного аспекта концепта посредством сравнительного исследования как лингвокультурного процесса. Сравнительно изучено сопоставление концепта, занимающее особое место в сопоставлении языков, вербализация концептов, то, что язык освещает этнологические особенности культур.

**Ключевые слова:** Концепт, культурная среда, аксиологичность, вербализация, грамматический дискурс, лингвокультурализм, лингвокультура.

**Abstract.** This article aims to express the cognitive aspect of the concept through comparative study as a linguistic and cultural process. The comparison of the concept, which has a special place in the comparison between languages, the verbalization of the concepts, the fact that the language illuminates the ethnological characteristics of the cultures has been comparatively studied.

**Key words:** Concept, cultural environment, axiological, verbalization, grammatical discourse, linguoculturalism, linguistic culture.

Lingvokulturologiya til va madaniyat o'rtasidagi munosobatni etnik mentalitetning tilda ifodalanishi va amalga oshishini tadqiq etadi [7,12-23]. Lingvokulturologiyaning asosi konkret madaniy konseptlarning semantik belgilarining uziga xos xususiyatlarini sistemaga solishga qaratiladi. Tildagi leksik birliklarning qiyosiy tadqiqotlari leksik birliklarning qo'llanishidagi bir xil ma'nolari va "grammatik nutq" (har bir tilga xos qoidalarning ma'lum ma'nolarini funksional-semantik verballashuvi)ning yaratilishi qonuniyatlarini tasvirlashga yo'naltirilishi kerak [6, 6-7,].

Tipologik nuqtayi nazardan ko'plab konsept unversaliyalarning individuallashuvi bir biridan farq qiladi. Ularning semantik sostavida quyidagi asosiy farqlar kuzatiladi: 1) "diskurslar aro metamorfozalarda" bir butunligini saqlagan va konseptning qarindoshlik identifikatsiyalashda muhim o'rin tutadigan hamda tushunchaviy, ratsiona diskursivlikni barcha belgilarini qamrab oladigan: 2) semantik ko'chma modellarda mavhum borliqni metaforik-obrazli, emotsional-hissiyotni ifodalovchi birliklar kiradi; 3) ma'lum bir tildagi konsept va uning verballashish usullarini qamrab oladigan shakllar bilan bog'liq "tushunchaviy", "til sistemasini tashkil etuvchi" birliklar tashkil qiladi [5, 14]. Keltirilgan mazkur semantik prototiplar tillar aro yoki ma'lum tabiiy tillardagi lingvokulturologik konseptlarni tipologik qiyoslashda muhim vositalar bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Asliyatning o'ziga xosligi asosan uning tarkibidagi lisoniy vositalarning milliy xususiyati bilan belgilanar ekan, asliyatning badiiy-g'oyaviy zaminini asliymonand tiklash asarning milliy bo'yog'ini qayta yaratish bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham milliy xususiyatlarni taqqoslash masalasi keyingi paytlarda tilshunoslarning ham, tarjimashunoslarning ham e'tiborini o'ziga borgan sari ko'proq tortib kelmoqda. Chunki madaniy va lingvamadaniy birliklarning ko'pchiligi milliy xususiyatni aks ettiradigan til vositalari ulushiga to'g'ri kelmoqda. Zero, lingvistika amaliyotida hanuzgacha yo'l lingvamadaniy va milliy xususiyatni taqqoslash bilan bog'liq masalalar keyingi davrning nazariy jihatdan ham, amaliy xususdan ham keng qarmrovli ishlar olib yuborilgan. Ilmiy adabiyotda xalqlar turmush tushunchalarini ifoda etadigan leksik birliklarni qaysi paytlarda kognitiv tilshunoslikning qaysi vositasida talqin etish lozimligi xaqida yagona fikr uchramaydi. Lingvamadaniy xususiyatning ijodiy jarayonligi xalqlar o'rdasidagi va shu bilan birga lingvistik ba'zi masalalarda uchraydigan mumkin bo'lgan turli-tuman tasodifiy tugunlarni yechishiga ko'maklashadi, unda amaliy mashg'ulotlarni mohirona yengish malakasi hosil qiladi. Bunday, taqqoslash tushunchalarini anglatadigan xos so'zlarni tarjimada adekvat

talqin etish asl nusxa milliy xususiyatini kitobxonga to‘la-to‘kis yetkazib berishdek murakkab muammoning eng mas’uliyatli va o‘ta mushkul masalalaridan hisoblanadi.

Xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan so‘zlar shubhasiz badiiy yodgorlikning milliy buyog‘ini, uning o‘ziga xosligini tashkil etadi. Asarning milliy fazilatini belgilaydigan yana shunday omillar ham uchrab turadiki, ular xalqning milliy-madaniy ruhiyati bilan bog‘liq bo‘ladi.

“Kognitiv fanlar” [6, 35], atamasi kabi “konsept” tushunchasi ham ko‘pgina ilmiy yo‘lalishtirishning umumlashgan sohasida o‘rganish obyektlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, kognitiv lingvistikaning o‘rganish obyektlaridan bo‘lgan dunyo to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil etish, dunyoni anglash, fikrlash masalalarining tilda aks etish va til bilan bog‘liq jihatlarini o‘rganishga qaratilgan va ushbu sohaning asosiy kategoriyalaridan hisoblanadi. Umumiy planda konsept tushunchasi operatsion fikr birligi bo‘lib u bilimlarni kategorizatsiyalash va kvantifikatsiyalash usuli hisoblanadi. Uning obyekti mental borliqning belgisi bo‘lib, ma’lum bir ma’noda abstraksiyalash orqali yuzaga keladi va o‘z obyektini tasvirlash bilan birga uni yaratadi ham [2, 8]. Lingvistik konseptlar o‘z navbatida biror bir etnosning lingvomadaniyatini o‘rganishni ham qamrab oladi. Lingvokulturologiya til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatni etnik mentalitetning tilda ifodalanishi va amalga oshirishini tadqiq qiladi [6, 14], [7, 7]. Lingvokulturologiyaning asosi konkret madaniy konseptlarning semantik belgilarining o‘ziga xos xususiyatlarini sistemaga solishga qaratiladi.

Madaniy konseptlar bu, avvalambor, muayyan bir millatning milliy ma’naviy turmush tarzida aks etgan madaniy xususiyati bo‘lib, ularning ma’naviyatiga anrotsentirik yo‘naltirilganligi, subyektivligi va o‘sha til sohibining ijtimoiy ongini belgilaydi. Lingvomadaniy konsept variativ va ko‘p sathli strukturaviy semantik tuzilish hisoblanib, uning tadqiqoti jarayonida kponent tahlilning qo‘llanilishi mikrolingvistik metodning qiyosiy semantikasida sermahsul yo‘l hisoblanadi [3, 13]. Lingvomadaniy konsept-bu ong va madaniyatni til sistemasida kompleks o‘rganishda foydalaniladigan shartli mental birlik hisoblanadi. Tillarning leksik tizimini qiyosiy tadqiq etishda bir ma’noli leksik birliklarning qo‘llanilish qonuniyatlari va “grammatik nutq”ning hosil bo‘lishida har bir tilga xos bo‘lgan ma’lum bir ma’nolarning funksional semantik verballashuviga qaratilishi lozim [2, 10].

Lingvomadaniy konseptlar verballashuvi ma’lum ma’noda ma’nolarning verballashuvi, va shuningdek ma’lum bir etnosning lingvomentalitetini aks ettirishi zarur. Xususan, ingliz lingvomadaniyatida “ovqatlanish” ma’lum bir ma’noda ingliz etnosining o‘ziga xos madaniyat turi ekanligini ham anglatadi. Jumladan, ovqatlanish konsepti orqali ingliz halqining o‘ziga xos qirralarini anglash imkoni tug‘iladi. Shuning uchun ham “madaniy” va “lingvomadaniy” konseptlar, o‘zlarining obyektida bir-biriga juda yaqin turadi. Shunday qilib ingliz xalqi “ovqatlanish” madaniyati

ingliz tilidagi bir qancha leksik birliklarda aks etadi: to have breakfast, to have dinner, to have supper, to dine, to eat, to devour, to wolf down, to bite va xakozolar. Ushbu ovqatlanish ma'nosinin anglatuvchi so'z birikmalar ingliz ovqatlanish turlariga tegishli hisoblanib, kunning turli vaqtlaridagi iste'mol bilan bog'liq.

Misol uchun "meal" oladigan bulsan bu konsept leksik sathda turli gap bo'laklariga tegishli bo'lgan til birliklari yordamida ifodalanadi. Albatta, berilgan konseptning asosiy tushunchaviy xususiyatlari izohli lug'atlarda to'laligicha aks etgan. Tahlil etilayotgan konseptning kalit so'zlarini aniqlashda o'sha lingvomadaniyatda o'ziga xos tarixiyli boshqa til birliklari bilan birikishidagi maxsulligiga asoslanib olib borildi. Shuning uchun ham biror madaniyatni anglatuvchi konseptlar berilgan madaniyat va o'sha tilning kalit so'zlari hisoblanadi, hamda ushbu kalit so'zlar o'z atrofiga shu madaniyat turining butun ko'rinishini qamrab oladi. Shuning uchun ham "meal" konseptining tanlanishi ushbu etnosning ushbu turdagi lingvomadaniyatini ochib berishga qaratilgan. "Meal" konseptining turlari ingliz "ovqatlanish" komponentining yadrosini tashkil etadi. Mazkur komponentlar ingliz xalqining ovqatlanish bilan bog'liq vaqt jarayonlarida o'z ifodasini topadi. Jumladan, "meal" so'zinig boshqa til birliklari bilan birikishi "ovqatlanish madaniyati", "ovqatlanish vaqti", "ovqatlanish jarayonida subyektning statusi" konseptual belgilarni ifoda planiga ko'chiradi.

"Meal" insonlarning faqatgina ochlikka bo'lgan tashnalikni bartaraf etuvchi iste'mol turi bo'lib qolmasdan, balki subyektning rohat olish vositasi sifatida ham lingvomadaniyatda aks etadi. Masalan: "That was a most enjoyable meal", ...a fine meal tastes infinitely better to a cold client than to a hot one. (Richard Eder).

Ingliz madaniyatida xonadon va xonadonda tashkil etiladigan ovqatlanish tartiblari va ularning jihatlari ham ingliz madaniyatini anglatuvchi til birliklarida namoyon bo'lishini kuzatish mumkin.

## ADABIYOTLAR

1. Апресян Ю. В., Апресян Ю.Д. Метафора в семантическом представлении эмоций // Вопр. языкознания. 1993. № 3. С. 27–35.
2. Апресян Ю. В., Опыт кластерного анализа: русские и английские эмоциональные концепты. Вопросы языкознания. Москва «Наука» № 1. 2011. – С 19-52.
3. Bo'ronov J.B. Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. Toshkent, "O'qituvchi", 973.-B.35.
4. Вургов J. Сравнительная типология английского и тюркских языков. – М., Высшая школа, 1983. – С. 33.
5. Vorkachev S.G. Schaste kak lingvokulturniy konsept. - М., Gnozis, 2004. 236s.
6. Гаманко, Р.С.Внутриязыковая и межъязыковая идиоматичность / Р.С.

Гаманко// Филологическая проблематика в системе высшего образования: Межвузовский сборник научных трудов. Выпуск 2. – Самара: Сам ГАПС, 2005. – С. 199-206.

6. Imamov N.P. Ingliz va o‘zbek tillarda tugallanganlik aspektual semantikasi shakillantiruvchi temporal adverbiallarning ifodalanishi, nomli maqolasi Til va adabiyot.uz 2-son 2024

7. Imamov N.P. Ingliz va o‘zbek tillarida iterativlik aspektual semantikasini shakillantiruvchi temporal adverbiallar, nomli maqolasi So‘z san’ati xalqaro jurnali 7 jild, 1 son. 2024.

## **CHET EL OLIMLARINING TANQIDIY TAFAKKUR HAQIDAGI QARASHLARI**

**Akabirova Mehriniso Baxtiyorovna**

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand Davlat Universiteti

doktoranti Tel. +998993391171

[akabirovamehriniso@gmail.com](mailto:akabirovamehriniso@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada chet ellik olimlarning tanqidiy fikrlashni rivojlantirish muammosi haqidagi g‘oyalari va qarashlarini ko‘rib chiqiladi. Olimlarning umumiy va shaxsiy qarashlari taqqoslanadi. Va o‘z navbatida ushbu g‘oyalarni tanqidiy fikrlashning mohiyati bilan bog‘liqligi ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** tanqidiy tafakkur, tanqidiy fikrlash, qaror qabul qilish, fikrlash jarayoni, inson aql-zakovati, inson hissiyotlari.

**Аннотация:** В статье рассматриваются идеи и взгляды зарубежных ученых на проблему развития критического мышления. Сравняются общие и личные взгляды ученых. И в свою очередь, рассматривается связь этих идей с сущностью критического мышления.

**Ключевые слова:** критическое восприятие, критическое мышление, принятие решений, мыслительный процесс, человеческий интеллект, человеческие эмоции.

**Annotation:** The article examines the ideas and views of foreign scientists about the problem of developing critical thinking. The general and personal views of scientists are compared. And in turn, it is considered that these ideas are related to the essence of critical thinking.

**Keywords:** critical perception, critical thinking, decision making, thought process, human intelligence, human emotions.